

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

ILM SARCHASHMALARI

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining FILOLOGIYA, FALSAFA, FIZIKA-MATEMATIKA hamda PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.

11.2019

**научно-методический журнал
Издаётся с 2001 года**

Urganch – 2019

“ILM SARCHASHMALARI” ilmiy-metodik jurnal
 Bosh muharrir dotsent **Ro‘zimboy YO‘LDOSHEV**

	TAHRIR HAY‘ATI:
<p align="center">JURNAL 2001-YILDAN CHIQA BOSHLAGAN</p> <p align="center">JURNAL OYDA BIR MARTA NASHR QILINADI</p> <p align="center">2019 11 (149)</p>	<p>ABDULLAYEV Bahrom, fizika-matematika fanlari doktori, ABDULLAYEV Ikrom, biologiya fanlari doktori, professor, ABDULLAYEV Ilyos, iqtisod fanlari doktori, ANNAMURATOVA Svetlana, pedagogika fanlari doktori, professor, ALEUOV O‘serboy, pedagogika fanlari doktori, professor, BERDIMUROTOVA Alima, falsafa fanlari doktori, professor, DADABOYEV Hamidulla, filologiya fanlari doktori, professor, DAVLETOV Sanjarbek, tarix fanlari doktori (bosh muharrir o‘rinbosari), DO‘SCHONOV Tangribergan, iqtisod fanlari doktori, professor, ERMATOVA Jamila, filologiya fanlari nomzodi, dotsent, HASANOV Oqnazar, fizika-matematika fanlari doktori, professor, HAJIYEVA Maqsuda, falsafa fanlari doktori, JO‘RAYEV Mamatqul, filologiya fanlari doktori, professor, JUMANIYAZOV Maqsud, texnika fanlari doktori, professor, JUMANIYOZOV Otaboy, filologiya fanlari nomzodi, professor, MAHMUDOV Madrahim, tarix fanlari doktori, professor, NAVRUZOV Qurolboy, fizika-matematika fanlari doktori, professor, OLLAMOV Yarash, yuridik fanlari nomzodi, dotsent, OTAMURODOV Sa‘dulla, falsafa fanlari doktori, professor, PRIMOV Azamat, filologiya fanlari nomzodi, dotsent, QIDIRNIYOZOV Muhammadsharif, tarix fanlari doktori, professor, QUTLIYEV Uchqun, fizika-matematika fanlari doktori, professor, QURAMBOYEV Karimboy, filologiya fanlari doktori, professor, RO‘ZIMBOYEV Safarboy, filologiya fanlari doktori, professor, RO‘ZIYEV Erkinboy, pedagogika fanlari doktori, professor, SADULLAYEV Azimboy, fizika-matematika fanlari doktori, akademik, SAGDULLAYEV Anatoliy, tarix fanlari doktori, professor, SALAYEV San‘atbek, iqtisod fanlari doktori, professor, SATIPOV G‘oipnazar, qishloq xo‘jalik fanlari doktori, professor, XODJANIYOZOV Sardor, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (mas‘ul kotib), YAXSHIMURODOV Alisher, fizika-matematika fanlari doktori, YOQUBOV Jamoliddin, filologiya fanlari doktori, professor, O‘ROZBOYEV Abdulla, filologiya fanlari doktori, G‘AYIPOV Dilshod, filologiya fanlari nomzodi, dotsent, SHUKURLAYEV Qodir, tibbiyot fanlari doktori, professor.</p>

MUASSIS: Urganch davlat universiteti. Jurnal O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi Xorazm viloyat boshqarmasida 2011-yil 23-dekabrda ro‘yxatdan o‘tgan. Guvohnoma №13-020.

рухий ҳолатини ифодалаб келади. Ушбу мифологик образлар аниқ макон ва замонда ҳаракат қилмайди. Уларнинг чегараси йўқ ва белгиланмайди. Бу кўпроқ муаллиф фитрати ва лирик асарда қандай ғояни ифодалашига боғлиқ бўлади.

Хуллас, ҳар бир шоирнинг макон тасвирлари кўп қатламли бўлади. Мифологик образлар ҳар бир бадиий асар таркиби доирасида алоҳида ўрни борлигини, улар нафақат шоир поэтик ғоясини ифодалаб келиши билан бирга, лирик асар композициясида макон ва замон уйғунлигини ҳам таъминлаб келади. У инсон ақли билан кўрилиб, мураккаб ва кенг қамровли тушунчаларни шакллантиради. Шу билан бирга, ўз ичига тарихий, илмий ва кундалик тушунчаларни олади. Аслида ҳам, дунё тасвирини тасвирлаш, биринчи навбатда, уни тавсифлашни талаб қилади. Инсон онгида ўша дунё тузилишининг шакллари билан бирига тегишли эканлиги географик макон концепциясига киради. Негаки, инсоннинг билиш психологиясида “макон” тушунчаси туради. Махфий, яъни яширин шаклда эса “вақт” тушунчаси туради. Ҳар бир инсоннинг шахсий ҳаёти вақтини горизонтал равишда ривожланиш билан боғлаш мумкин. Шоир эса лирик қаҳрамон ҳаётини вертикал йўналишда шакллантиради.

Raxmonova Shahnoza (Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU o‘qituvchisi)
XX ASR IKKINCHI YARMI O‘ZBEK SHE’RIYATIDA MUSAMMATLAR VA
ULARNING VAZN XUSUSIYATLARI (Habibiy, Sobir Abdulla, Chustiy ijodi misolida)

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada XX asr ikkinchi yarmi o‘zbek adabiyotidagi, xususan, Habibiy, Sobir Abdulla, Chustiylarning yaratgan musammatlar tadqiq etilgan. Shuningdek, musammat turlarining vazn va janr xususiyatlari, mavzu ko‘lami tahlil ostiga olingan.*

***Аннотация.** В статье изучены мусамматы (лирический жанр) узбекской литературы второй половины 20 века, в частности на примере произведений Чусты, Сабир Абдуллы, Хабиби. А также проанализирован тематический охват, жанровые особенности и метрические виды мусаммата.*

***Annotation.** The article studies the musammats (lyrical genre) of Uzbek literature of the second half of the 20th century, in particular Chusti, Sabir Abdullah, Khabibi. As well as coverage, genre features and metric types of musammats are thematically analyzed.*

***Kalit so‘zlar:** aruz vazni, musammat, murabba’, muxammas, musaddas, musamman, muashshar, vazn.*

***Ключевые слова:** метрика аруз, мусаммат (лирический жанр), мурабба, мухаммас, мусаддас, мусамман, муашшар, метрика.*

***Key words:** metre “aruz”, musammat (lyrical genre), murabba, muhammas, musaddas, musamman, moashshar, metre.*

O‘zbek adabiyotida she’riy shakllar tarix silsilasida sayqallanib, ma’lum bir qoliplarga aylangan. Ana shu she’riy shakllarni aniqlashtirishda musammatlar o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Musammat arabcha so‘z bo‘lib, “marvarid tizmasi” yoki “marvarid donalarini ipga termoq” degan ma’nolarni ifodalaydi.¹ Dastlab, musammatlar tasmit² nomi bilan fanga ma’lum bo‘lgan. She’riyatimizda murabba’, muxammas, musaddas, musabba’, musamman, mustasne’, muashshar kabi she’riy shakllar bandlardan tashkil topgan bo‘lib, bular bir atama musammat deb yuritiladi. Musammatlar XI asrda janr sifatida shakllangan. “Manbalarda ilk musammatlar yaratgan shoirlar sifatida Manuchehri Damg‘oniy (vaf. 1040) va Qatron Tabriziy (XI asr o‘rtalari) nomlari tilga olinadi. Musammatlarning vujudga kelishida g‘azalda musajja’ (saj’li, qofiyali) san’atini qo‘llash hamda muashshah (biron kishi nomi yashirincha ifodalangan she’riy asar) va zajal kabi arab she’riyatidagi bandli she’r shakllarini ta’siri kuchli bo‘lgan”. Turkiy (o‘zbek) adabiyotida maz-

¹ Юсупова Д. Алишер Навоий тахмислари. 141-бет/<http://www.e-adabiyot.uz/uzbek/mumoz/1267-maqola.html>

² Qarang: D.Yusupova. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. T., “Ta’lim-Media”, 2019.

kur janr haqida Shayx Ahmad Taroziyning “Funun ul-balog‘a” asarida ilk ma’lumot uchraydi: “Musammat besh turlik bo‘lur: musammati murabba’, musammati musaddas va musammati muxammas, musammati musamman va musammati muashshar”.¹ Muallif o‘zi sanab o‘tgan musammat turlarining har biriga ta’rif beradi va misol keltiradi. XX asr ikkinchi o‘zbek she’riyatida ham shoirlar ijodida musammat turlari uchraydi. Xususan, Habibiy, Sobir Abdulla, Chustiy ijodida murabba’, muxammas, musaddas, musamman, muashshar janrining namunalaridan keng foydalanishgan. Biz musammat janrlarni tavsifini berishda mazkur tarkib asosida yondashdik.

Musammat turlariga tartib berilganda, biz, dastlab, murabba’ janriga to‘xtalamiz. Murabba’ arabcha “to‘rtlik” degan ma’noni ifodalaydi. Adabiy istiloh sifatida “har bandi to‘rt misradan tashkil topgan she’riy shakl” hisoblanadi. Shayx Ahmad Taroziy “Funun ul-balog‘a” asarining muqaddimasida “ammo musammati murabba’ aningtek bo‘lurkim, she’rni to‘rt qism qilurlar. Uch qismning oxirinda saj’ rioyat qilibtur. To‘rtinchi qismda qofiya keltur(ur)lar”, deb murabba’ning ta’rifini keltiradi. Demak, murabba’ to‘rtlik she’r bo‘lib, a-a-a-a, b-b-b-a, v-v-v-a ... tarzida qofiyalanadi. “Murabba’ janrining ilk namunalari xalq og‘zaki ijodida uchraydi (“Alp Er To‘nga”). Yozma adabiyotda Ahmad Yassaviy ijodidan boshlangan”. XX asr ikkinchi yarmi she’riyatida, xususan, Habibiy, Sobir Abdulla, Chustiy ijodida ham murabba’ning go‘zal namunalari uchraydi.

Habibiyning 71 ta murabba’si bo‘lib, shundan 15 tasi aruz tizimida yozilgan. Ular, asosan, ramal, hazaj, rajaz, sari’ bahri vaznlarida yaratilgan. Habibiy murabba’larining mavzusi turlicha. Shoir o‘z murabba’larida goh vatanni tarannum etsa, gohida ma’shuqa ishqida mast bo‘lib, tabiiat manzaralariga mahliyo bo‘ladi. Xususan, Habibiyning “Zargar bahor” murabba’si shular qatoriga kiradi. Quyida birinchi bandini keltiramiz:

*Keldi hur o‘lkam sari zargar bahor,
Shabnam ila ayladi gavhar, bayor.
Qildi zumurrad kabi yaksar bahor,
Lola kabi sochdi qizil zar, bahor.*²

Mazkur murabba’ sari’ bahrining sari’i musaddasi matviyi mavquf (ruknlari va taqti’i: - V V - | - V V - - V ~ muftailun muftailun foilon) vaznida yozilgan. An’anaviy a-a-a-a tarzida qofiyalangan. Murabba’da fasllar kelinchagi bahor tarannum etiladi.

Shuningdek, Sobir Abdulla ijodida ham murabba’ janriga doir 35 ta she’r uchraydi. Shundan 27 tasi aruz tizimida ramal, hazaj, rajaz, muzori’ bahri vaznlarida yaratilgan. Adabiyotshunos U.To‘ychiyev ham “Sobir Abdulla murabba’ taraqqiyotiga hissa qo‘shdi,” – deya e’tirof etadi.³ To‘g‘ri, Sobir Abdulla yaratgan murabba’lar adabiyotimiz durdonalari hisoblanadi. Ayniqsa, uning “Baxshining orzusi” murabba’sida zamonaviylik, suv va davr nidosi aks etdi. Quyida murabba’ning dastlabki bandini keltiramiz:

*Orzum shuldir, Qoraqumda chaman tuzmoqchiman,
Bog‘ uchun, suv yurguzib, gul, meva o‘tqizmoqchiman,
Sunbulu rayhon sepib, yulgunlarin uzmoqchiman,
Ey Amudaryo, senga chin yo‘lni ko‘rgizmoqchiman.*⁴

Mazkur murabba’ ramal bahrining ramali musammani mahzuf (ruknlari va taqti’i: foilotun foilotun foilotun foilun -V - -\V - -\V - -\V -) vaznida yozilgan. An’anaviy a-a-a-a tarzida qofiyalangan. Murabba’ning 3-,4-bandidagi qofiyalanmaydigan misralari ramali musammani maqsur vaznidadir.

¹ Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. Бадоеъ ул-васат. МАТ, 20 томлик, Т., “Фан”, 1990, 128-бет.

² Ҳабибий. Танланган асарлар. Т., Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат, 1967.

³ Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик, 2-жилд. Лирика. Т., “Фан”, 1992, 219-бет.

⁴ Абдулла Собир. Танланган асарлар. 4 томлик. 1-том, Т., Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат, 1975, 158-бет.

Chustiy ijodida ham murabba'lar uchraydi. Lekin biz mazkur murabba'larni tahlil qilganimizda, ular aruz vaznida emas, balki barmoq vazni qonuniyatlari asosida yozilganligi aniqlashtirdik, shuning uchun biz ularni tahlilga tortmadik.

Navbatdagi janrimiz muxammas bo'lib, arabcha "beshlik"¹ degan ma'noni ifodalaydi. Turkiy (o'zbek) she'riyatda dastlabki muxammaslar Hofiz Horazmiy (XIV asr), Yusuf Amiriy² ijodida uchraydi. Muxammasning taxmis turini adabiyotimizda taraqqiy ettirgan shoir Alisher Navoiy hisoblanadi. "Muxammaslar yaratilish xususiyatiga ko'ra ikkiga bo'linadi:

1. Mustaqil (tab'i xud) muxammaslar – bir shoirning o'zi tomonidan yaratiladi. Bunda ijodkor boshqa shoir she'rini asos qilib olmaydi, balki o'zi mustaqil ravishda beshlik yaratadi.

2. Taxmis – muallif o'zga shoir yoki ba'zida o'z g'azalini asos – zamin qilib olib, shu mavzuni davom ettirgan holda, vazn, qofiya va radifni saqlab qolib beshlik yaratadi. Bunda asos qilib olingan g'azaldagi har baytning yuqori qismiga uch misra qo'shiladi. Maqta' bandda taxmis bog'lanayotgan shoirning taxallusi ham keltiriladi. XX asr ikkinchi yarmi shoirlari ijodida, xususan, Habibiy ijodida 111 ta, Sobir Abdullada 91 ta, Chustiy devonlarida 107 ta muxammas uchraydi. Ushbu janrning har ikkala turi ham XX asr ikkinchi yarmi shoirlari ijodida keng istifoda etilgan. Habibiy, Sobir Abdulla, Chustiy ijodidagi muxammaslar aruz vaznining ramal, hazaj, mutaqorib, rajaz, muzori', mujtass, xafif bahri o'lchovlarida bitilgan. Muxammas yaratishda XX asr ikkinchi yarmi shoirlari ijodida ramal bahri yetakchilik qiladi. Mazkur bahrda Habibiy ijodida 50 ta, Sobir Abdullada 39 ta, Chustiy devonida 61 ta muxammas yaratilgan. Ramal bahri o'lchovlari ichida *ramali musammani mahzuf (maqsur)* (-V - -\V - -\V - -\V - (~)) vazni muxammas yozishda yetakchilik qiladi. Mazkur vaznda Habibiyning 44 ta, Sobir Abdullaning 34ta, Chustiyning 52 ta muxammasi yaratilgan. Ushbu vaznni Habibiy "Xabardor aylading" mustaqil (tab'i xud) muxammasi orqali ko'rib o'tamiz:

*G'amza birla bir boqib jono, meni yor aylading,
Oshiqi sodiqlaring qoshida ham bor aylading,
Ko'nglim ovlab mahrami asrori diydor aylading,
Lahza-lahza marhamatlarga sazovor aylading,
Mehr-u shafqat qancha bo'lsa dilda izhor aylading.*³

Keltirilgan parchadan anglashiladiki, mustaqil muxammas aruz tizimining *ramali musammani mahzuf (maqsur)* (ruknlari va taqti'i: *foilotun foilotun foilotun foilun* -V - -\V - -\V - -\V - (~)) vaznida yaratilgan bo'lib, *a-a-a-a-a*, *b-b-b-b-a* (boshqa misralarda) tarzida qofiyalan-gan. Faqat mustaqil muxammasning ikkinchi bandi *ramali musammani maqsur* (-V - -\V - -\V - V - -\V ~) vaznida yozilgan. Shoir mazkur mustaqil muxammasini yaratishda boshqa shoir she'rini asos qilib olmagan, aksincha o'zi mustaqil ravishda beshlik yaratgan. She'rda *yor*, *bor*, *diydor*, *sazovor*, *izhor* qofiyadosh so'zlaridagi "m" undoshi raviy hisoblanib, barcha misralarini birlashtirib, o'zaro bog'lab turibdi. "Aylading" radifi esa matla' va har qaysi bayt oxirida takrorlanib kelgan.

XX asr ikkinchi yarmi she'riyatida *ramali musammani mahzuf (maqsur)* (-V - -\V - -\V - V - -\V - (~)) vaznida yozilgan muxammasning taxmis turi ham o'ziga xos mavqega ega. Ma'lumki, taxmis muxammasning bir turi bo'lib, ko'pincha biron g'azal asosida yoziladi. Bunda muayyan g'azalning har bir bayti oldidan uchdan yangi misra qo'shiladi. Mumtoz adabiyotimizda shoirlarning o'z g'azallariga ham (Alisher Navoiy, Koshki), boshqa mualliflarning g'azallariga ham muxammas bog'laganliklari ma'lum. D.Yusupovanning "Alisher Navoiy taxmis-lari" maqolasida ta'kidlashicha, Alisher Navoiyning "Xazoyin ul-maoniy"ga kiritilgan 10 muxammasidan

¹ Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик, 2-жилд. Лирика. Т., "Фан", 1992; Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият луғати. Т., "Янги аср авлоди", 2008; D.Yusupova. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. Т., "Ta'lim-Media", 2019.

² Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик, 2-жилд. Лирика, Т., "Фан"; D.Yusupova. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. Т., "Ta'lim-Media", 2019.

³ Носиров О. ва бошқ. Ўзбек классик шеърини жанрлари. Т., "Ўқитувчи", 1979, 353-бет.

barchasi taxmis, ya'ni g'azalni beshlantirish asosida vujudga kelgan muxammas hisoblanadi. Bularning 3 tasi "malik ul-kalom" Lutfiyga, qolgan 7 tasi esa shoirning o'z g'azallari asosida yaratilganligi bilan xarakterlanadi. Mumtoz adabiyotimiz tarixida ijodkorning o'z g'azaliga taxmis bitish hodisasi kam uchraydi.¹ An'anaga muvofiq XX asr ikkinchi yarmida ijod qilgan shoirlarimiz ham taxmis bog'langan g'azalning vazni va qofiyasini saqlab qolishgan. *Ramali musammani mahzuf* (maqsur) vaznida yozilgan muxammasning mazkur turi Habibiy ijodida 6 ta, Sobir Abdullada 1 ta, Chustiy ijodida 3 ta uchraydi. Xususan, Habibiy Alisher Navoiy, Fuzuliy (2 ta), Furqat, Sobir Abdullaning mazkur vaznda bitilgan g'azallariga, Sobir Abdulla faqat Muqimiyning "Oshkor o'lg'ay sirim" radifli g'azaliga, Chustiy Fuzuliyning 2 ta va Muqimiyning 1 ta g'azaliga taxmis bog'lagan. Shu o'rinda, Habibiy Alisher Navoiyning "Badoye' ul-vasat" devonidan olingan 566-raqam ostidagi g'azaliga bog'lagan taxmisini tahlil qilib ko'ramiz. Alisher Navoiyning mazkur g'azali 7 bayt bo'lib, aruz tizimining *ramali musammani mahzuf (maqsur)* (ruklari va taqti'i: *foilotun foilotun foilotun foilun -V - -\V - -\V - -\V - (~)*) vaznida yozilgan. Habibiy g'azalga taxmis bog'lash jarayonida uning vaznini saqlab qolgan. Zero, g'azalga taxmis bog'langanda unda qo'llanilgan vazni saqlab qolish ham taxmisnavislikning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Quyida muxammasning birinchi bandini misol sifatida keltiramiz:

Vas	Li	din	qil	dim	U	mid	an	di	Sha	yi	xo	mim	bi	la
-	V	-	-	-	V	-	-	-	V	-	-	-	V	-
Kel	Ma	di	bir	yo'l	Ku	tib	tak	li	fi	E'	lo	mim	bi	la
-	V	-	-	-	V	-	-	-	V	-	-	-	V	-
Qay	Da	bo'l	sin	shod(i)	lig'	bu	qo	ra	ay	yo	mim	bi	la	
-	V	-	-	- V	-	-	-	-	V	-	-	-	V	-
Bir	Qa	dah	may	ich	Ma	dim	sar	vi	gu	lan	do	mim	bi	la
-	V	-	-	-	V	-	-	-	V	-	-	-	V	-
Bir	Na	fas	uy	rul	Ma	di	dav	ron	me	ning	ko	mim	bi	la
-	V	-	-	-	V	-	-	-	V	-	-	-	V	-

Bunda jadvalda ajratib ko'rsatilgan misralar Alisher Navoiy qalamiga mansub bo'lib, yuqoridagi uch misra Habibiy tomonidan bitilgan. Taxmisning qofiyalanish tizimi: a-a-a-a-a shaklidir. Qofiya asosini raviy harfi tashkil qilgan. Taxmisdagi raviy: *xomim, e'lomim, ayyomim, gulandomim, komim* qofiyadosh so'zlaridagi "m" undoshi hisoblanib, barcha misralarini biriktirib, o'zaro bog'lab turibdi. "Bila" radifi esa matla' va har qaysi bayt oxirida takrorlanib kelgan. Habibiy taxmisida xuddi Alisher Navoiy g'azali singari 1, 3, 4 va 7-misralari *ramali musammani mahzuf* vaznida bo'lsa, qolgan 2, 5, 6 – misralar esa *ramali musammani maqsur* vaznida yaratilgan. Shuning uchun biz taxmisning vaznini ham *ramali musammani mahzuf* ham *ramali musammani maqsur* vazni, deb belgiladik (Muxammasning to'liq matnini ilovada keltiramiz.). Habibiy taxmis yaratishda Alisher Navoiyning "Badoye' ul-vasat" devonidan olingan 566-raqam ostidagi g'azalning barcha baytlaridan foydalangan. Shuni ta'kidlash lozimki, g'azalning barcha baytlariga taxmis bog'lash adabiyotimizda kam uchraydi.

Shuningdek, XX asr ikkinchi yarmi she'riyatida, xususan, Habibiy, Sobir Abdulla, Chustiy ijodida hazaj, rajaz, mutaqorib, mujtass, muzori', xafif bahrlarining musamman va musaddas vaznlarida yaratilgan muxammaslar ham uchraydi.

Navbatdagi janrimiz musaddas hisoblanib, u arabcha "oltilik" degan ma'noni ifodalaydi. Musaddaslar, dastavval, turkiy (o'zbek) adabiyotida Alisher Navoiy² ijodida qo'llanilgan. Bu haqda "Adabiy turlar va janrlar" kitobida, "musaddasni qo'llash Navoiydan boshlanadi, unda er-

¹ Чустий. Садокат гуллари. Т., Внешторгиздат, 1992.

² Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик, 2-жилд. Лирика, Т., "Фан", D.Yusupova. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. Т., "Ta'lim-Media", 2019.

kin ishq masalasi aks etdi”, – deb ta’kidlaydi. Alisher Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotidagi 5 ta musaddasdan bittasi tab’i xud musaddas bo’lsa, qolgan barchasi tasdis shaklida bo’lib, ulardan 2 tasi Lutfiyga, bittasi Husayniyga va bittasi shoirning o’z g’azaliga bog’langan tasdisdir. Musaddaslar ham xuddi muxammas kabi tarkibiy jihatdan 2 ga bo’linadi:

1. Tab’i xud ya’ni mustaqil musaddaslar.
2. Tasdis, ya’ni g’azalni oltilantrish asosida yaratiladigan musaddaslar.

XX asr ikkinchi yarmi she’riyatida, xususan, Habibiy, Sobir Abdulla, Chustiy ijodida tasdis ya’ni g’azalni oltilantirish asosida yaratilgan musaddaslar uchramaydi. Faqat tab’i xud ya’ni mustaqil musaddaslar uchraydi. Xususan, Habibiy 3 ta, Sobir Abdulla 4 ta, Chustiy 22¹ ta mustaqil musaddas yaratgan. Davr shoirlari ijodida yaratilgan mustaqil musaddaslar a-a-a-a-a, b-b-b-b-a-a, d-d-d-d-a-a tarzida qofiyalangan. Chunki yaratilgan mustaqil musaddaslarning so’nggi ikki misrasi naqorat tarzida har bir band oxirida takrorlanib keladi. Xuddi shunday musaddaslardan biri Habibiyning “Otaxonlar” she’ri hisoblanadi. U quyidagi band bilan boshlanadi:

*Bu ko’hna jahon bog’ida bog’bon otaxonlar,
Avlodi bashar tuxmiga dehqon otaxonlar,
Insonlar aro eng ulug’ inson otaxonlar,
Zo’r tarbiyachi, usta bilimdon otaxonlar,
Ey bir-biriga yor-u qadrdon otaxonlar,
Yo’q sizga g’am-u hasrat-u armon otaxonlar.*

Ko’rinib turganidek, Habibiyning “Otaxonlar” musaddasi hazaj bahrining hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf (ruknlari va taqti’i: maf’uvlu mafoiyu mafoiyu fauvlun (– – V |V – – V|V – – V |V – –) vaznida, “otaxonlar” radifi asosida yaratilgan. Ushbu musaddas yaratilish xususiyatiga ko’ra tab’i xud ya’ni mustaqil musaddas hisoblanadi. Hajman 5 banddan iborat bo’lib, 30 misrani o’z ichiga oladi. Musaddas yoshi ulug’, “jahon bog’ida bog’bon”, hayotning “usta bilimdon” otaxonlariga bag’ishlanadi. XX asr ikkinchi yarmi she’riyatida hazaj bahrining hazaji musammani solim (Sobir Abdulla 2 ta, Chustiy 2 ta), hazaji musaddasi mahzuf (Chustiy 2ta) va hazaji musaddasi axrabi maqbuzi maqsur (Habibiy 2 ta, Chustiy 2ta) vaznlarida bitilgan musaddaslar ham uchraydi.

XX asr ikkinchi yarmi she’riyatida, xususan, Chustiy tomonidan yaratilgan musaddaslarda vazn buzilish holatlari ham uchrab turadi. Biz buni, Chustiyning “Ko’ngil tilagi” devoniga kiritilgan “Katta-kichik” musaddasi misolida ko’rib o’tamiz. Musaddas quyidagi band bilan boshlanadi:

*Assalom ey, yor-u do’st-(u) yosh-u qari, katta-kichik,
So’z topolsam, koshki erdi siz(lar)ni xursand etgulik,
Men kirib har dam tafakkur olamin kezdim tetik,
Ikki so’z ko’rdim haqiqat olami(da) nurdan bitik,
Arzimas bir pulga debdir ochsa ming boylik eshik,
Bo’lmasa gar tan sihatlik birla xotir(i)jamlik.²*

Keltirilgan musaddasda deyarli har bir misrasida bo’g’in ortish hodisasini kuzatamiz. Bu jarayon esa vaznning buzilishiga sabab bo’lgan. Biz musaddasdagi vazn talabi bilan ortiqcha bo’g’inlarni qavs ichiga oldik. Garchi musaddasning vazni buzilgan bo’lsa ham, barmoqqa tushishdan ko’ra aruz vazni qonuniyatlariga tushgan. Shuning uchun biz musaddasning vaznini *ramali musammani mahzuf (maqsur)* (ruknlari va taqti’i: *foilotun foilotun foilotun foilun – V – –\– V – –\–V – –\–V – (~)*) deb belgiladik. Shuningdek, Chustiyning boshqa musaddaslarida ham, xususan, “Tasadduqman”, “Zo’r avlod” singari she’rlarida ham vazn buzilish holatlarini kuzatish mumkin. Mazkur vaznda Sobir Abdullaning ham musaddaslari yozilgan.

¹ Izoh: Chustiyning “Hayotnoma” devonida “Alisher Navoiyning Abdurahmon Jomiy g’azaliga musaddasi” (Foniy devonidan) ham kiritilgan. Bu musaddas bevosita Chustiyning o’z ijodi emas, balki tarjima bo’lganligi uchun biz uni bu miqdorga kiritmadik.

² Чустий. Кўнгил тилаги. Т., “Фан”, 1994.

Shuningdek, Habibiy, Sobir Abdulla, Chustiy tomonidan yaratilgan mustaqil musaddaslar aruz tizmining mutaqorib, mujtass bahrlarining musamman vaznlarida bitilgan.

Navbatdagi janr musamman deb atalib, arabcha “sakkizlik” degan ma’noni ifodalaydi. “Turkiy adabiyotda musammanning ilk bor qo‘llanilishi Yusuf Amiriy nomi bilan bog‘liq”. Mazkur janr ham muxammas, musaddas singari 2 ga bo‘linadi.

1. Tab’i xud, ya’ni mustaqil musammanlar.

2. Tasmin, ya’ni g‘azalni sakkizlantrish asosida yaratiladigan musammanlar.

Musammanning 2-turi ya’ni tasminlar XX asr ikkinchi yarmi she’riyatida, xususan, Habibiy, Sobir Abdulla, Chustiy ijodida uchramaydi. Faqat tab’i xud ya’ni mustaqil musammanlar Sobir Abdulla (1 ta), Chustiy (2 ta) ijodida uchraydi. Sobir Abdullaning devonida bitta musamman bo‘lib, u ramal bahrining *ramali musammani mahzuf (maqsur)* (ruknlari va taqti’i: *foilotun foilotun foilotun foilon* –V – –\–V – –\–V – –\–V – (~)) vaznida yaratilgan. Musamman a-a-a-a-a-a-a-b-b tarzida qofiyalangan, 9 band – jami 72 misradan iborat. Sobir Abdullaning “Frontga maktub” musammani shoir Amin Umariy bilan hamkorlikda yozilgan. Bu haqda U. To‘ychiyev “Yangi ong musammanlarda ham (Sobir Abdulla, Amin Umariy “Frontga maktub”) hukmron ijodiy ruhga aylandi”, – deya ta’kidlaydi.¹ Albatta, she’r mazmuni davr nuqtayi nazari-ga ko‘ra ma’nan eskirgan. Lekin vazn nuqtayi nazaridan o‘rnak sifatida ko‘rsatilishi mumkin.

Shuningdek, yuqorida XX asr ikkinchi yarmi she’riyatida Chustiy ijodida ham musamman yaratilganligini ta’kidladik. Shoirning “Oliyhimmat Chustligim”, “To‘yona” singari musammanlari aruz tizimining ramali musaddasi mahzuf (ruknlari va taqti’i: *foilotun foilotun foilon* –V – –\–V – –\–V –) vaznida yaratilgan. Xususan, “Oliyhimmat Chustligim” musammanini ko‘rib o‘tsak. Mazkur musamman Chustiyning “Ko‘ngil tilagi” devoniga kiritilgan, a-a-a-a-a-a-a, b-b-b-b-b-b-a-a, v-v-v-v-v-v-a-a tarzida qofiyalangan, 7 band – jami 56 misradan iborat. She’r quyi-dagi bayt bilan boshlanadi:

To‘y muborak, ey badavlat chustligim,

*Qutli yangi shon-u shuhrat chustligim.*²

Musamman muraddaf (radifli) bo‘lib, “*chustligim*” jumlasini radif vazifasida kelgan. Ushbu musamman mazmuniga ko‘ra, chustliklarning tom ma’nodagi madhiga bag‘ishlab yaratilgan. Musammanda, shoir chustliklarni mard, shersalobat, halol mehnat orqali rohat topishini madh etadi. Ularning hunarmand, bahodir, lafzi halolligi, xirmoni Tyanshan, Elbrus tog‘iga qiyoslanadi.

XX asr ikkinchi yarmi she’riyatida muashshar janri ham alohida o‘rin tutadi. Ma’lumki, muashshar arabcha “o‘nlik” degan ma’noni ifodalaydi. Adabiy istiloh sifatida har bandi o‘n baytdan tarkib topuvchi lirik she’r hisoblanadi. Adabiyotshunos A.Hojiahmedov “Mumtoz badiiyat lug‘ati” kitobida “Bunday asarlarda birinchi banddagi o‘nta misra qofiyalanib, keyingi bandlarning 8 misrasi mustaqil qofiyaga ega bo‘ladi, oxirgi, 9–10-misralar esa birinchi band bilan qofiyadosh bo‘ladi”, – deb ta’kidlaydi. Ba’zan aksi ham bo‘lishi mumkin (masalan, Nodiraning “Firoqnoma” muashshari.). Adabiyotimizda muashsharning dastlabki ko‘rinishi Nodira she’riyati bilan bog‘liq. XX asr ikkinchi yarmi she’riyatida Sobir Abdulla ijodida ikkita (“Qudratli qo‘llar gullagan cho‘llar qissasi”, “Bosing siz ilgari”), Chustiy ijodida ham bitta (“Bashar dushmani – dushmanimdir mening”) muashshar uchraydi.

Sobir Abdullaning “Qudratli qo‘llar gullagan cho‘llar qissasi” muashshari mutaqorib bahri-ning *mutaqoribi musammani mahzuf* (ruknlari va taqti’i: *fauvlun fauvlun fauvlun faal* - V – –| V – –| V – –| V –) vaznida yozilgan bo‘lib, “Devon”idan o‘rin olgan. Muashshar 10 bandli bo‘lib, har bir band 10 baytni o‘z ichiga oladi (jami 100 misra). Muashshar an’anaga muvofiq a-a-a-a-a-a-a-a-a-a, b-b-b-b-b-b-b-b-a-a, v-v-v-v-v-v-v-v-a-a tarzida qofiyalangan. Quyidagi bayt bilan boshlanadi:

¹ Абдулла Собир. Танланган асарлар. 4 томлик, 1-том, Т., Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат, 1975, 224-бет.

² Хожиахмедов А. Ўзбек арузи луғати. Т., “Шарк”, 1998, 229-бет.

*Jahon barmog'i tishlanib, aqli lol,
Bo'lib chin, har afsona-yu, ehtimol.*

Sobir Abdullaning ikkinchi “Bosing siz ilgari” muashshari “Devon”iga kiritilmagan. Mazkur muashshar M.Abdurahmonova tomonidan nashrga tayyorlangan to‘rt tomlik asarlarning birinchi jildidan o‘rin egallagan. M.Abdurahmonova bu muashsharni Sobir Abdullaning “So‘z va soz” she‘riy to‘plamidan olganligini ta’kidlaydi.¹ Sobir Abdullaning ikkinchi “Bosing siz ilgari” muashshari ramali musammani mahzuf vaznida yozilgan.

Chustiyning “Bashar dushmani – dushmanimdir mening” muashshari ham Sobir Abdullaning “Qudratli qo‘llar gullagan cho‘llar qissasi”she‘ri singari mutaqorib bahrining *mutaqoribi musammani mahzuf* (ruknari va taqti‘i: fauvlun fauvlun fauvlun faal - V – –| V – –| V – –| V –) vaznida yozilgan. Mazkur muashshar Chustiyning “Hayotnoma” devonidan o‘rin olgan. Qofiyalanish tizimi Sobir Abdullaning muashsharlaridan farqli o‘laroq a-a-a-a-a-a-a-b-b, b-b-b-b-b-b-b-b-a-a, v-v-v-v-v-v-v-a-a tarzida qofiyalangan, 9 band – jami 90 misradan iborat. Bandning oxiridagi ikki misra:

Bashar dushmani – dushmanimdir mening,

Bashar gulshani – gulshanimdir mening –

misralari aynan naqorat tarzida takrorlanadi. “Bashar dushmani – dushmanimdir mening” muashshari hozirgi kundagi insoniyat ma’naviyatiga rahna solayotgan inson muammosiga bag‘ishlangan. Muashshar matla’sidayoq bashariyat dushmani so‘zi og‘u, zahar kulguli chayon monand faqat zulm, joni g‘arazga to‘la insoniyat dushmanlariga xitob namoyon bo‘ladi.

XX asr ikkinchi yarmi she‘riyatida musammatning murabba’, muxammas, musaddas, masamman, muashshar kabi turlari uchraydi. Ular aruz tizimining ramal, hazaj, mutaqorib, rajaz, muzori’, mujtass, xafif bahri vaznlarida yaratilgan. Faqat, murabba’ bundan mustasno. Mazkur bahrlar orasida ramal bahri yetakchilik qiladi. Faqat murabba’ janrigina barmoq vaznida yaratilgan. XX asr ikkinchi yarmi she‘riyatida, xususan, Habibiy devonida 64 ta, Sobir Abdulla devonida 43 ta, Chustiy devonida 107 ta muxammas, Habibiy 3 ta, Sobir Abdulla 4 ta, Chustiy 22 ta musaddas, Sobir Abdulla 1 ta, Chustiy 2 ta musamman, Sobir Abdulla 1 ta, Chustiy 1 ta muashshar yaratilgan. Shuningdek, Habibiy, Sobir Abdulla, Chustiy ijodida tasdis, tasmin uchramaydi.

**Авазназаров Одилжон Рахматуллоевич (Қарши Давлат университети
Адабиётшунослик кафедраси ўқитувчиси)
СОҶИЙ ОБРАЗИ ГЕНЕЗИСИ**

Аннотация. Мақолада Шарқ адабиётида, жумладан, ўзбек адабиёти тарихида кенг қўлланган соқий тушунчасининг генезиси аниқланди. Унинг поэтик тамойиллар асосида бадийий образ мақомига кўтарилиши ҳақида фикр юритилди, яъни реал шахс маъносидан поэтик образга айланиш жараёни очиқ берилди. Шунингдек, соқийнинг ўзбек фольклори ва тасаввуф адабиёти билан боғлиқ баъзи муҳим жиҳатлари хусусида мулоҳаза юритилди.

Аннотация. В статье определяется генезис понятия «кравчий» в восточной литературе, в том числе в истории узбекской литературы. Высказывается мысль о возвышении его до уровня художественного образа на основе поэтических принципов. То есть показан процесс превращения реальной личности в поэтический образ. Кроме того, высказывается мнение о некоторых важных аспектах кравчего, связанных с узбекским фольклором и суфийской литературой.

Annotation. The article defines genesis of the concept of cup-bearer which is widely used in the history of the Oriental literature, including in the history of Uzbek literature. Some ideas have been given about its obtaining the form of literary character with poetic tendency. That is, the process of turning the status of a real person into the status of poetic image has been revealed.

¹Собир Абдулла. Асарлар. Тўрт томлик. Биринчи том. Т., Ф.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат, 1975.

MUNDARIJA

22 ДЕКАБРЬ – ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ МАЖЛИСИ ҚОНУНЧИЛИК ПАЛАТАСИ ҲАМДА ХАЛҚ ДЕПУТАТЛАРИ МАҲАЛЛИЙ КЕНГАШЛАРГА САЙЛОВЛАР КУНИ

Расулов Ҳаким Маманович. Сайлов тизими: сиёсий-ҳуқуқий маданият ва сиёсий фаоллик уйғунлиги.....3

МУҲАММАД РИЗО ЭРНИЁЗБЕК ЎғЛИ ОГАҲИЙ ТАВАЛЛУДИНИНГ 210 ЙИЛЛИГИГА

Ўрозбоев Абдулла. Мумтоз мутаржим маҳорати.....8

МАТЕМАТИКА

Халджигитов Абдували Абдусаматович, Юсупов Юсуфбай Саиджонович, Адамбаев Учкунбек Эркинович. Численное моделирование связанной двумерной динамической задачи термопластичности.....12

FALSAFA

Маматқулов Рустам. Миллий манфаатлар ва миллий ўзликни англашни ривожлантириш масалалари.....16

Авлакулов Актам Мавлонкулович. Техноген цивилизация ва унинг таълим-тарбия жараёнларида намоён бўлиши.....20

Раматов Жуманиёз Султанович. Мафкуравий таҳдидларнинг олдини олишда институционал асосдаги фаолиятни такомиллаштириш омиллари.....24

Ҳасанов Шарофидин Шамшурович. Жамиятда конфликтологиянинг ўрни.....27

Панжиев Сухроб. Маънавий ҳаёт барқарорлигини таъминлашда ҳақиқатнинг аҳамияти....31

Рўзиев Анвар Жуманазарович. Мутафаккирларимизнинг дунёқараши ва фаолиятини тадқиқ этиш тарихий мезон сифатида.....34

TILSHUNOSLIK

Маматқулова Фотима Аширкуловна. Кулинаронимларнинг хусусиятлари ҳақида.....38

Қамбаров Нодирбек. Психоллингвистикада тил, нутқ ва тафаккур муносабати.....41

Маматқулова Саидахон Шукуржоновна. Ҳозирги кун шароитида инглиз тили нормалари.....45

Бегимов Олим Тўхтамишович. Орографик объектларнинг нисбий негативлик тамойили асосида номланиши.....51

Эсановна Дурдона Лутфуллаева, Сапарниязова Муяссар. Ўзбек тилида ном яратишнинг лингвистик асослари.....54

Холбутаев Гайратбек Ойбекович. Некоторые аспекты рекламной лингвистики.....57

ADABIYOTSHUNOSLIK

Хурсанов Дилшод. Мифологик образларда бадий хронотоп уйғунлиги.....62

Rahmonova Shahnoza. XX asr ikkinchi yarmi o'zbek she'riyatida musammatlar va ularning vazn xususiyatlari (Habibiy, Sobir Abdulla, Chustiy ijodi misolida).....65

Авазназаров Одилжон Раҳматуллоевич. Соқий образи генезиси.....71

Тоирова Наргиза. Оскар Уайльд бадий-эстетик оламининг ўзига хосликлари.....75

PEDAGOGIKA

Шамуратов Рустам. Олий таълим муассасаларида инновацион-стратегик бошқарувни такомиллаштириш.....79

Аллаберганова Муяссар, Аширова Аноргул. Информатика фанини ўқитишда булутли технологиялар, хизматлар ва иловаларнинг роли.....53